

XORIJDA IJTIMOY PEDAGOGIKANING RIVOJLANISHI.

Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti pedagogika kafedrası o'quvtuvchisi

Muhammadiyeva Sevara Bahodirovna

muxammadiyevasevara4@gmail.com

pedagogika yo'nalishi 2-bosqich talabalari

Eshmurodova Feruza Ulug'bek qizi

eshmurodovaferuza76@gmail.com

Norqulova O'g'iloy Yo'ldosh qizi

norqulovaogiloy098@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy pedagogikaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslari, uning jamiyatdagi o'rni, shaxsni ijtimoiylashtirishdagi ahamiyati hamda rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganiladi. Shuningdek, Germaniya, AQSh va Yevropa davlatlarida ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish yo'nalishlari, asosiy konsepsiyalari va amaliy faoliyati yoritib beriladi. Maqolada xorij tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari ham tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy pedagogika, ijtimoiylashuv, tarbiya, xorij tajribasi, pedagogik faoliyat, jamiyat, ijtimoiy yordam, yoshlar tarbiyasi.

Аннотация

В данной статье анализируются этапы становления и развития социальной педагогики в зарубежных странах. Рассматриваются теоретические основы

социальной педагогики, её роль в обществе, значение в процессе социализации личности, а также опыт развитых стран. Особое внимание уделяется развитию социальной педагогики в Германии, США и странах Европы, её основным концепциям и практической деятельности. Также анализируются возможности применения зарубежного опыта в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: социальная педагогика, социализация, воспитание, зарубежный опыт, педагогическая деятельность, общество, социальная помощь, воспитание молодежи.

Kirish

Ijtimoiy pedagogika zamonaviy pedagogika fanining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u shaxsning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy muammolarni hal etish va insonni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish ijtimoiy pedagogika rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy pedagogika XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropada mustaqil fan sifatida shakllandi. Ayniqsa, Germaniyada bu yo‘nalish chuqur nazariy asosga ega bo‘lib, keyinchalik boshqa mamlakatlarga ham keng tarqaldi.

Ijtimoiy pedagogika fani bundan 2000 yil oldin ham mavjud bo‘lgan bo‘lib, ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanish tarixida, bu fan pedagogikaning tarkibida bo‘lgan. Ijtimoiy pedagogika fani rivojining uch bosqichda rivojlanish tarixini ko‘rish mumkin.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishining birinchi bosqichi.

Qadimgi davrlardan XVII asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda tarbiya tajribasining ortib borishi, faktlar to‘planishi, pedagogik va ijtimoiy nazariyalar shakllangan. Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining bu bosqichi tarbiyani ijtimoiy hodisa sifatida tan olinishi bilan tavsiflanib, bu davrda tarbiyaning turli nazariyalari yuzaga kelishi muqarrar bo‘lgan.

Ibtidoiy davr ijtimoiy pedagogik amaliyotning vujudga kelishida qadimgi dunyoning ilk sivilizatsiyalarining paydo bo'lishi ijtimoiy-pedagogik fikrning shakllanishiga kuchli ta'sir etgan. Miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtasi va ikkinchi yarmida ijtimoiy pedagogik g'oyalarni yaratgan allomalar nomlari ma'lum bo'lib, ijtimoiy pedagogik tafakkurning rivojlanishiga antik davr faylasuflari ham katta hissa qo'shgan.

Ulardan Suqrot "O'z-o'zingni angla" degan shiorni ilgari surgan bo'lib, Demokrit esa o'z ta'limotida tarbiyada bola tabiatini hisobga olish tamoyilini asoslagan, bola tarbiyasini yoshligidan boshlamoq kerakligini talqin qilgan.

Shuningdek, Aflotun ilk marotaba tarbiya va davlatning o'zaro munosabati g'oyasini ilgari surib, tarbiya davlatning eng muhim vazifasi bo'lishini aytib o'tgan. Bundan tashqari, Arastu antik dunyoda tarbiyaning to'liq nazariyasini ishlab chiqqan bo'lib, Aflotundan farqli o'laroq, Arastu inson tarbiyasida asosiy e'tiborni insonning o'z manfaatlariga va uning rivojlanishiga qaratadi.

Ijtimoiy pedagogika rivojining ikkinchi davri XVII-XIX asrlarda ijtimoiy-pedagogika ilg'or g'oyalar va ilmiy asoslantirishlar bilan boyitilgan davr. XVIII-XIX asrlar olimlari faylasuf, sotsiolog, pedagog va psixologlar davlat va jamoat institutlari bilan hamkorlikda ijtimoiy pedagogik muammolarni hal qilish g'oyalarining paydo bo'lishi davridir.

Shu davrda ijtimoiy pedagogikadagi asosiy yo'nalishlarning, g'oyalarning rivojlanishiga frantsuz faylasufi, ma'rifatparvar, yozuvchi, J.Russo, rus pedagogi va qomusiy olimi M.Lomonosov, frantsuz faylasufi va ma'rifatparvari K.Gelvetsiy, Shvetsariyalik buyuk pedagog I.Pestalotstsi, ingliz pedagogi va faylasuflari R.Ouen va G.Spenser oilaning shaxs tariqasida shakllanishidagi o'rni haqida ijtimoiy-pedagogik g'oyalar bilan singdirilgan asarlar yaratgan.

XIX asr davr mobaynida, ijtimoiy pedagogikaning pedagogika fanidan ajralish jarayoni sodir bo'lgan, uning falsafa, tibbiyot, sotsiologiya psixologiya kabi fanlar bilan yaqinlashuvi ro'y berishini ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga

kiritgandan so'ng ijtimoiy pedagogika mustaqil fan sifatida o'qitila boshlagan bo'lsa-da, u ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy tarbiya ko'rinishida qadimiy ildizlarga ega.

Ijtimoiy pedagogikaning ilk qadamlarini Yevropada, xususan Germaniya va Fransiyada kuzatish mumkin. Bu davrda ijtimoiy pedagogika jamiyatda ishlamagan yoki qiyinchiliklarga duch kelgan shaxslar, masalan, bolalar va o'spirinlarga yordam berish maqsadida rivojlana boshladi. XX asrning o'rtalarida, ayniqsa Skandinaviya davlatlarida, ijtimoiy pedagogika o'zining amaliy jihatlarini mustahkamladi va pedagogik tizimda ijtimoiy xizmatlar va yordamchi faoliyatlar kiritildi.

Bugungi kunda xorijda ijtimoiy pedagogika global miqyosda tarqalgan, turli yurtlarda ijtimoiy integratsiya, marginal guruhlar bilan ishlash va jamiyatda adolatni ta'minlashga yo'naltirilgan kompleks tizim sifatida shakllandi. Ushbu fan asosida olib borilgan ilmiy izlanishlar va amaliy tadbirlar ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixini yanada boyitdi va hozirgi zamon pedagogikasida o'zining muhim o'rnini saqlab qolmoqda.

Germaniya modeli (Fanning vatani): Ijtimoiy pedagogika atamasi birinchi bo'lib XIX asrda Germaniyada (Karl Mager va Adolf Disterveg tomonidan) muomalaga kiritilgan. Bu yerda asosiy e'tibor yoshlarning jamiyatda o'z o'rnini topishi va ijtimoiy tarbiyaga qaratilgan.

AQSH va Angliya: Bu mamlakatlarda "Ijtimoiy ish" (Social Work) tushunchasi ustunlik qiladi. Fokus ko'proq individual yordam, psixologik qo'llab-quvvatlash va qiyin ahvoldagi oilalar bilan ishlashga qaratilgan.

Skandinaviya davlatlari: Ijtimoiy pedagogika "hayotiy ta'lim" (life-long learning) sifatida qaraladi. Davlat barcha qatlamlar uchun ijtimoiy xavfsizlik va inklyuziv ta'limni kafolatlashda ushbu fanning metodlaridan foydalanadi.

Ijtimoiy integratsiya: Jamiyatdan uzilib qolgan guruhlar (migrantlar, nogironligi bor shaxslar, ishsizlar) bilan ishlashning ilmiy metodikalari ishlab chiqilgan.

Profilaktika: Huquqbuzarlik, narkomaniya va boshqa ijtimoiy illatlarning oldini olishda maktab va mahalla tizimida ijtimoiy pedagoglar faol ishtirok etadi.

Kasbiy standartlar: Xorijda ijtimoiy pedagog — bu ham pedagog, ham psixolog, ham huquqshunos ko‘nikmalariga ega bo‘lgan mutaxassis hisoblanadi.

Xulosa

Xorijda ijtimoiy pedagogika rivoji yuqori darajaga yetgan bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Turli mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy pedagogika nafaqat ta‘lim tizimi, balki butun jamiyat barqarorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tajribalarni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash ijtimoiy muammolarni hal etishda samarali natijalar berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

Mudrik A.V. Sotsialnaya pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2010.

Galaguzova M.A. Sotsialnaya pedagogika: nazariya i praktika. – Moskva: VLADOS, 2008.

Kovaleva A.G. Sotsialnaya pedagogika. – Moskva: Prospekt, 2012.

Internet manbalari:

www.unicef.org

www.europa.eu

www.pedagog.uz

[cyber leninka.uz](http://cyber.leninka.uz)